

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR FANINI O'QITISHDA WEB TEXNALOGIYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI

Suyunov Azizbek Muhammadi o'g'li

Guliston Davlat Universiteti

magstranti

Anotatsiya: *Maqolada pedagogik dasturiy vositalar fanini o'qitishda web texnologiyalar resurslar tashkil etish bo'yicha ishlar olib borildi. Pedagogik dasturiy vositalar fanini o'qitishda web texnologiyalar resurslar tashkil etish bo'yicha yangi tushuncha va konikmalar shakllantirildi.*

Kalit so'zlar: *Pedagogik dasturiy vositalar, web texnologiyalar, Canva.com, Prezi.com.*

Elektron pedagogika axborot kommunikatsiya texnologiyalar bilan to'yingan (uyg'unlashgan) axborot ta'lim muhitida o'quv jarayonlarni o'rganish, bashoratlash va tafsirlash bilan shug'ullanadigan ilmiy yo'nalish.

Elektron pedagogika - bu yuqori texnologiyali axborot ta'lim muhitida ta'lim va tarbiyaning usul va shakllarini ochib berish, o'quv jarayonlarini o'rganish, tavsiflash va bashoratlash bilan shug'ullanadigan pedagogikaning yangi bir yo'nalishi.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- o'rgatuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;

- test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;

- mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

- o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar (Virtual borliq tizimlari).

Virtual borliq (Virtualnaya realnost) tushunchasini Jaron Lanier (Lane) taklif etgan. Virtual borliq **immersivlik** va **interfaollik** tushunchalari bilan bog'liq.

Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o'zini faraz qilishini tushunish lozim.

Interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi ob'ektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi.

Virtual borliq tizimi deganda – biz imitatsion dasturiy va texnik vositalarni qabul qilamiz. Interfaollikni ta‘minlash uchun, virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak. Bu amallar ko‘pmodallikka, ya‘ni ko‘z bilan ko‘radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo‘lishi kerak. Bu amallarni amaliyotda bajarish uchun zamonaviy tizimlarda turli tovush va videotexnologiyalardan foydalaniladi. Masalan, katta hajmli tovush va videotizimlari, shuningdek odamning bosh qismiga o‘rnatiladigan shlem va ko‘zoynak displeylar, “hid sezadigan” sichqonchalar, boshqaruvchi qo‘lqoplar, kibernetik nimchalar simsiz interfeys birgaligida ishlatiladi. Yuqoridagilar ekzotik qurilmalarga tegishli.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an‘anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo‘yiladigan **didaktik talablarga quyidagilar kiradi:** ilmiylik, tushunarli, qat‘iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o‘quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta‘minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o‘rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to‘ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko‘rgazmalilik, faollashtirish (o‘qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o‘qitish natijalarini o‘zlashtirish mustahkamligi, muloqotning interfaolliligi, o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma‘lum bir faning o‘ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o‘zaro bog‘liqliligi, o‘zaro aloqadorligi, turlitumanligi, amalga oshirilishi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-pertseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko‘rgazmali-amaliy), diqqati (qat‘iyliligi, boshqaga ko‘chishi), motivatsiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko‘rgazmalilik, o‘z vaqtida qayta aloqa yordamida o‘quvchilarning yuqori darajadagi motivatsiyalarini doimiy ravishda rag‘batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini hisobga olib, o‘quv fani mazmuni hamda o‘quv masalalari murakkablik darajasi o‘quvchilarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o‘quv materialini o‘zlashtirishda ortiqcha hishayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta‘sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalari, test o‘tkaziladigan manbalar kiradi. Tarmoq talablariga “mijoz-server” arxitekturasi, Internet- navigatorlar, tarmoq operatsion tizimlari, telekommunikatsiya, boshqaruv vositalari (o‘qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o‘lchami, rangi), bezashning funktsional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo‘nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko‘rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differentsiatsiyalash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funktsionalilik, ishonchlilik.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do‘stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o‘qitishga mo‘ljallangan o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko‘zda tutadi.

Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi kerak:

1. Pedagogik dasturiy vositalar – o‘quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holda qurilishi.
2. Pedagogik dasturiy vositalar o‘quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko‘rinishida ta‘minlashi. Fanlararo mantiqiy o‘zaro bog‘liqlikning hisobga olinishi.
3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta‘lim oluvchiga o‘quv materialini bosqichma-bosqich o‘zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.[1]

Pedagogik dasturiy vositalar fanini o‘qitishda web texnologiyalaridan foydalangan holda taqdimotlar yaratib, ushbu taqdimotlardan keng foydalanish mumkin. Quyidagi web saytlar orqali biz taqdimotlar yaratishimiz mumkin:

1. Canva.com
2. Prezi.com

Canva bu grafik dizayn platformasi bo‘lib, odamlar undan SMM, posterlar, taqdimotlar, hujjatlar va boshqa vizual ishlarni yaratishda foydalanishadi. Saytda tayyor dizayn qoliplari mavjud. Platformani ishlatish bepul bo‘lib, qo‘shimcha imkoniyatlarni taqdim qiluvchi pullik obunalar — Canva Pro and Canva for Enterprise ham mavjud.

2020-yil iyunida, Canva 60 million avstraliya dollari miqdoridagi investitsiya jalb qilib, bozordagi narxini 6 milliard Avstraliya dollariga yetkazib oldi. Bu 2019-yilgi platformaning narxidan 2 barobar ko‘proqdir.

Canva Avstraliyaning Perth shahrida Melanie Perkins, Cliff Obrecht va Cameron Adamslar tomonidan 2013-yilning 1-yanvarida ishga tushirilgan. Faoliyatining ilk-yilida, Canva foydalanuvchilar soni 750,000 taga yetadi. 2014-yil aprelda, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar bo‘yicha ekspert Guy Kawasaki kompaniyaga brendni tanituvchi (Brand Promoter) sifatida qo‘shiladi. 2015-yilda, marketing materiallariga ko‘proq e‘tibor berilgan Canva for Work servisi ishga tushadi.

2020-yil iyun oyida, Canva FedEx Office bilan, keyingi oy esa Office Depot bilan hamkorlik qilishni boshlaganini e‘lon qildi. 2020-yil iyun holatiga ko‘ra, Canvaning bahosi 6 milliard Avstraliya dollariga yetdi.



Ushbu saytda tayyor qiziqarki shablonlar orqali taqdimotlar yaratib pedagogik dasturiy vositalar fanini o'qitishda foydalanish mumkun.


1-rasm

Bundan tashqari prezi.com sayti ham mavjud. **Prezi** Vengriyaning taqdimot dasturiy ta'minot kompaniyasi, bu 2009 yilda tashkil etilgan bo'lib, uning ofislari Budapesht, Berlin, San-Frantsisko va Rigada joylashgan. 2018 yil aprel oyiga qadar Prezi-ning 100 milliondan ortiq foydalanuvchisi bor edi, ular 325 milliondan ortiq ommaviy taqdimotlarni yaratdilar, ular 3,5 milliard martadan ko'proq ko'rilgan. 2011 yil boshida Prezi o'zining birinchi ishlab chiqarilishini boshladi. Xuddi shu yili u 14 million dollar daromat. 2014 yil mart oyida Prezi \$ 100 million bepul litsenziyalarni va'da qildi. O'sha yilning noyabrida Spectrum Equity va Accel Partners kompaniyalari tomonidan yangi moliyalashtirish uchun \$ 57 mln taklif etildi.

2015 yil fevral oyida Prezi fotosuratlardan "mini-filmlar" yaratish uchun Nutshell dasturini ishga tushirdi.

Prezi uchun Android 2015 yilda, 2016 yil iyun oyida kompaniya Prezi Business-ni ishga tushirdi. 2017 yil aprel oyida Prezi Next - yangi HTML5 asosli mahsulot - chiqarildi. 2017 yil may oyida Prezi sotib oldi Infogramma, Latviyada joylashgan ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish kompaniyasi.

Ushbu saytda tayyor qiziqarki shablonlar orqali taqdimotlar yaratib pedagogik



dasturiy vositalar fanini o'qitishda foydalanish mumkun.

2-rasm

Yuqoridagi saytlar orqali taqdimotlar yaratishning zamonaviy usullari sifatida takidlashimiz mumkun. Pedagogik dasturiy vositalar fanini o'qitishda web texnologiyalardan foydalanishda ushbu saytlar samarali deb tavsiya beramiz.

ABYOTLAR:

[1] <https://videouroki.net/razrabotki/pedagogik-dasturiy-vositalarni-yaratish-va-elektron-virtual-kutubxonani-tashkil-.html?reg=ok&ysclid=la97p6fvo5574101521>

2. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.

3. Qodirov B.G', Begimqulov U.Sh., Abduqodirov A.A. "Axborot texnologiyalari". Elektron darslik. 2002 y.

4. Rasulova Z.D. (2020) . Pedagogical peculiarities of developing socio perceptive competence in learners . European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences . 8 : 1 , pp . 30-34 . 3. Pasulova.

5. Sariyev, R. (2020) MOODLE – ta'limni boshqarish tizimida interaktiv elementlardan foydalanish asoslari [Basics of using interactive elements in education management system - moodle]. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy texnikaviy jurnal [Scientific and Technical Journal of Science and Technology Development]. 7/2020, 164–169.